

**LOGISTIKA TIZIMLARI**

To'rayeva Sabina Fazliddin qizi

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti

3-bosqich talabasi

Boltayeva Shahnoz Bebudovna

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti

“Yashil iqtisodiyot va agrobiznes” kafedrası

katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqola logistika tizimlarining iqtisodiyotdagi roli, ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy tamoyillar, shuningdek, IoT (Internet of Things), sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarining logistika jarayonlarida qanday qo'llanilishini tahlil qiladi. O'zbekistonda logistika infratuzilmasining rivojlanishi va xalqaro yuk aylanmasining o'sishiga e'tibor qaratilmoqda. Maqolada yangi transport loyihalari, multimodal tizimlar va ekologik transport vositalarining joriy qilinishi orqali mamlakat logistika salohiyatini kuchaytirish imkoniyatlari ko'rsatilgan. Tahlillar logistika tizimlarining iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlik uchun katta ahamiyatga egaligini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: logistika tizimlari, transport infratuzilmasi, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, IoT, multimodal tizimlar, ekologik transport, O'zbekiston, xalqaro yuk aylanmasi, logistika markazlari, blokcheyn, iqtisodiy barqarorlik, raqobatbardoshlik.

Zamonaviy dunyoda iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, sanoatning kengayishi va iste'mol bozorining globallasuvi logistika tizimlariga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirdi. Endilikda logistika nafaqat mahsulotni A nuqtasidan B nuqtasiga yetkazish bilan cheklanmaydi, balki butun ishlab chiqarish va ta'minot zanjirining uzviy qismi sifatida har bir bosqichda samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Logistika tizimlari ishlab chiqarish, saqlash, tashish, bojxona, taqsimlash, xizmat ko'rsatish va



axborot almashinuvi kabi jarayonlarni yagona tizimda muvofiqlashtiradi. Ushbu tizimlar samarali faoliyat ko'rsatmasa, korxonalar va butun iqtisodiyot katta yo'qotishlarga uchrashi mumkin.

Zamonaviy logistika tizimlari tezlik, ishonchlilik va xarajatlarni kamaytirish kabi asosiy tamoyillarga tayangan holda faoliyat yuritadi. Raqobat kuchaygan bugungi bozorda mahsulotning sifati va narxi qanchalik muhim bo'lsa, uni mijozga tez yetkazib berish ham shunchalik ahamiyatlidir. Shu jihatdan olib qaralganda, logistika nafaqat korxonaning, balki butun iqtisodiyotning muhim strategik omiliga aylangan. Bu borada Amazon, Alibaba, UPS va Maersk kabi yirik xalqaro kompaniyalar samarali logistika tizimlari orqali bozorning yetakchilari safida qolmoqda.

Logistikaning asosiy maqsadi - yuklarni "Just in time" aniq muddatda eng kam mehnat va moddiy resurslarni sarflangan holda yetkazib berishdan iborat. Materiallar, xom-ashyo va tayyor mahsulotlarni aynan vaqtida yetkazib berish butun iqtisodiy tizimning ishlab turishiga qulay sharoit yaratadi va omborlardagi zaxiralarni sezilarli darajada qisqartirishga imkon beradi. Logistika to'liq darajada iste'molchiga xizmat qiladi.

1-jadval

Logistik tizimining tashqi muhit bilan aloqasi

Tashqi omil	Ta'siri
Iqtisodiy	Transport va saqlash xarajatlari, inflyatsiya va resurslar
Siyosiy-huquqiy	Bojxona, ruxsatnomalar, qonunlar, eksport-import cheklovlari
Texnologik	Yangi texnologiyalar, avtomatlashtirish, innovatsiyalar
Ekologik	Atrof-muhitga ta'sir, yashil logistika standartlari
Ijtimoiy-demografik	Mijoz talablarini o'rganish, ishchi kuchi ehtiyoji
Raqobatchilar	Narx siyosati, xizmat sifati va raqobat kuchi
Ta'minotchilar	Xom ashyo yetkazib berish va zaxira boshqaruvi

**Mijozlar****Xizmatning sifati va tezligi, mijoz ehtiyojlari**

Logistik tizimi tashqi muhit omillari bilan uzviy aloqada bo'ladi. Iqtisodiy omillar, masalan, xarajatlar va narxlar tizimning samaradorligiga ta'sir qiladi. Siyosiy-huquqiy omillar bojxona qoidalari va qonunlar orqali logistik jarayonlarni boshqaradi. Texnologik rivojlanish yangi usullar va avtomatlashtirishni ta'minlab, tizimni tezlashtiradi. Ekologik talablar esa atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish va energiya tejamliligini oshirishni talab qiladi. Ijtimoiy-demografik omillar mijozlar talablariga moslashishga yordam beradi, raqobatchilar esa tizimni samarali bo'lishga undaydi. Ta'minotchilar bilan o'zaro aloqalar tizimning ishonchliligini ta'minlaydi, mijozlar esa xizmat sifati va tezligiga talabni oshiradi.

Precedence Research ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosidagi logistika bozori hajmi 2025-yilda 11,23 trillion AQSh dollariga baholanmoqda va prognozlarga ko'ra, 2034-yilga kelib bu ko'rsatkich taxminan 23,14 trillion AQSh dollarini tashkil etadi. Bu davrda bozorning yillik o'rtacha o'sish sur'ati 8,36% ga yetadi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi logistika bozorining hajmi 2025-yilda 5,07 trillion AQSh dollarini tashkil etadi va prognozlar asosida, bu davr davomida yillik o'rtacha o'sish sur'ati 9,37% bo'ladi. Bozor hajmi va prognozlar daromad (million AQSh dollarida) asosida hisoblangan bo'lib, 2024-yil asosiy yil sifatida tan olingan.¹

O'zbekistonning logistika tizimi so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Davlat siyosatida logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu bilan birga, ichki va xalqaro yuk oqimini soddalashtirish hamda eksport-import operatsiyalarini tezlashtirish muhim vazifalardan hisoblanadi. O'zbekistonning geografik joylashuvi, mamlakatni Markaziy Osiyo, Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo va Yaqin Sharq o'rtasidagi asosiy tranzit yo'lagi sifatida tashkil etishda katta ahamiyat kasb etadi. Transport va logistika tizimining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu sohadagi islohotlar va investitsiyalar nafaqat ichki, balki xalqaro aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi

2-jadval

¹ [Logistics Market Size to Hit Around USD 23.14 Tn By 2034](#)



2023-yilda O'zbekistonning logistika tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari²

Ko'rsatkichlar	2023-yilgi natijalar
Yuk tashish hajmi	1,383 million tonna (2022-yilga nisbatan 102%)
Yuk aylanmasi	48,818 million tonna-km (2022-yilga nisbatan 106%)
Xalqaro yo'nalishlarda yuk tashish	61,4 million tonna (2022-yilga nisbatan 114,5%)
Transport xizmatlari eksporti	1,541,4 million AQSh dollari (2022-yilga nisbatan 105%)
Transport xizmatlari umumiy hajmi	108,477 trillion so'm (2022-yilga nisbatan 108%)
Logistika samaradorligi indeksi (LPI)	2,6 ball (160 mamlakat orasida 88-o'rin)

Ushbu jadvalda 2023-yilda O'zbekistonning logistika tizimi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar taqdim etilgan. Ko'rsatkichlar, jumladan, yuk tashish hajmi, xalqaro yuk aylanmasi, transport xizmatlari eksporti va umumiy hajmi, mamlakatning transport infratuzilmasi va savdo aloqalarining rivojlanishini aks ettiradi. Bu ma'lumotlar O'zbekistonning iqtisodiy o'sishini, global aloqalarini mustahkamlashini va logistika sohasidagi samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy logistika tizimlarini tashkil etishda ilg'or texnologik yechimlar muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari logistika jarayonlarining aniqligi va samaradorligini sezilarli

² [Transport vazirligi faoliyatiga oid hisobot \(2023-yil\) | Mintransuz](#)



darajada oshiradi. Hozirgi vaqtda yuklarning real vaqt rejimida kuzatilishini ta'minlovchi qurilmalar, sun'iy intellekt asosidagi tahlil tizimlari, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash imkonini beruvchi platformalar, shuningdek, joylashuvni aniq aniqlovchi texnologiyalar va yuklar tarixini xavfsiz saqlovchi blokcheyn tizimlari keng joriy etilmoqda.

Masalan, haroratga sezgir mahsulotlar — oziq-ovqat, farmatsevtika mahsulotlari va boshqa tovarlarni tashish tizimi bo'lgan sovuq zanjir logistikasida IoT qurilmalari orqali mahsulot saqlanayotgan muhitdagi harorat doimiy nazorat qilinadi. Haroratda og'ish kuzatilgan taqdirda, avtomatik ogohlantirish tizimi ishga tushadi. Bu esa mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Logistika tizimlari mamlakat iqtisodiy rivojlanishining strategik tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda bu sohani modernizatsiya qilish, yangi infratuzilma ob'ektlarini barpo etish va xalqaro transport yo'nalishlariga integratsiyalash bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatning geografik joylashuvi mintaqaviy transport-kommunikatsiya uzellaridan biriga aylanish imkonini beradi. Hudud orqali xalqaro yuk tashish oqimi shakllangan bo'lib, asosiy yuk aylanmasi avtomobil va temiryo'l transporti orqali amalga oshiriladi.

Logistika sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiya ishlab chiqilgan. Ushbu hujjatda xalqaro savdo yo'llarini kengaytirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, multimodal tashishni rivojlantirish, zamonaviy logistika markazlarini tashkil etish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan. Ayni paytda bir qator hududlarda logistika markazlari faoliyat ko'rsatmoqda, ular yuklarni qayta yuklash, saqlash va yetkazib berish bo'yicha kompleks xizmatlarni taqdim etmoqda.

Xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan yirik infratuzilma loyihalari, jumladan, temiryo'l liniyalari qurilishi orqali mamlakatning tashqi savdo imkoniyatlari kengaymoqda. Bu tashabbuslar yuk tashish xarajatlarini kamaytirish va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yengillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, logistika sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotida muhim ulushni tashkil etmoqda va bu ko'rsatkichni oshirish bo'yicha maqsadli choralar ko'rilmqda.



Mamlakatda logistika faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar soni ortib bormoqda. Ushbu subyektlar asosan xususiy sektor vakillari bo'lib, ular yuk tashish, ekspeditsiya, omborxona xizmatlari, bojxona rasmiylashtiruvi va boshqa yo'nalishlarda faoliyat yuritmoqda. Yirik omborxona majmualari, ayniqsa, sovitish texnologiyalari bilan jihozlangan zamonaviy komplekslar mahsulotlar xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Logistika tizimining izchil ishlashi ichki bozorning barqarorligini ta'minlaydi, narxlarning keskin o'zgarishini kamaytiradi, eksport salohiyatini oshiradi, iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga zamin yaratadi. Bu soha bilan bog'liq klasterlarda yuk tashish, omborxona faoliyati, qadoqlash, texnik xizmat va axborot texnologiyalari kabi yo'nalishlar ham rivoj topmoqda. Shunga qaramay, tizimda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Jumladan, transport infratuzilmasining ayrim qismlarida sifatsizlik kuzatiladi, texnik vositalar eskirgan, bojxona jarayonlari ortiqcha byurokratik to'siqlarga duch kelmoqda, shuningdek, malakali kadrlar taqchilligi mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida yagona elektron bojxona tizimi joriy etilmoqda, logistikaga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash dasturlari kengaytirilmoqda, xorijiy investorlar ishtirokida yangi logistika markazlari tashkil etilmoqda. Kelgusida logistika tizimini yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarga ustuvor ahamiyat qaratish lozim: multimodal transport infratuzilmasini kengaytirish, ekologik jihatdan toza transport vositalarini joriy etish, logistika texnoparklarini tashkil qilish, sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish, barcha logistika xizmatlarini yagona raqamli platforma orqali integratsiyalash.

Xulosa qilib aytganda, logistika tizimlari har qanday davlatning iqtisodiy barqarorligi va tashqi iqtisodiy aloqalarining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Mamlakat logistika salohiyatidan to'liq foydalanadigan bo'lsa, u mintaqada va undan tashqarida ham yetakchi logistika markazlaridan biriga aylanishi mumkin. Bu esa keng iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jumaniyozov, S. Logistika tizimlari va transport infratuzilmasi, Toshkent: «O'qituvchi», 2019, 5–150b.
2. Toshpulatov, M. Logistika va ta'minot zanjirini boshqarish, Toshkent: «Fan va texnologiya», 2018, 30–120b.
3. Xudoyberganov, A. Transport va logistika menejmenti, Toshkent: «Iqtisodiyot», 2017, 45–180b.
4. Baxtiyorov, Z. Logistika asoslari, Toshkent: «O'zbekiston xalq ta'limi nashriyoti», 2015, 25–100b.
5. [Transport vazirligi faoliyatiga oid hisobot \(2023-yil\) | Mintransuz](#)
6. [Logistics Market Size to Hit Around USD 23.14 Tn By 2034](#)